



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## O'ZBEKNING YANA BIR CHINORI QULATILDI (YOXUD USMON NOSIR TUHMATGA UCHRADI)

**Xalilova Mardona Hasanjon qizi**

*Namangan davlat chet tillar instituti Jahon  
tillar fakulteti talabasi*

*Tel. +998 (97) 466 13 03*

*E-mail: [xalilovamardona024@gmail.com](mailto:xalilovamardona024@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Bugungi maqolada juda yosh bo'lishiga qaramay, adabiyotga bo'ronday kirib kelib, qisqa vaqt ichida o'z muxlislari mehriга sazovor bo'lgan, uncha muncha she'riy uslub va ijodni to's - to's qilib yuborgan shoir Usmon Nosirning ijodi va ayanchli qismati haqida so'z yuritamiz.*

***Kalit so'zlar:** iste'dod, adabiyot, she'riyat, shoir, qatag'on, ilmiy maqola.*

Bilamizki, qatag'on davrida birgina ozodlikni yoqlab yozgan she'ri yoki millatni birlikka chorlagan nutqi uchun ham qamoqqa olingan, uzoq o'lkalarga surgun qilingan, og'ir mehnatlarga majbur qilingan. Qanchadan qancha shoh asarlar bosmaxonaga yetib bormagan. Nechtadan nechta iste'dodlar qatl etilgan. O'zbekistonda Iosif Stalin va uning dumlari tomonidan "qizil qirg'in" amalga oshirilayotgan, o'lim tegirmoni qanchadan qancha begunoh insonlar qismatini yamlamay yutayotgan damlar... .

Davrning shafqsiz "o'lim shamoli" endigina 24 yoshni qarshilagan O'zbekning Lermontovini, sharqdagi yosh Pushkinini ham chetlab o'tmadi. Bugungi maqolada juda yosh bo'lishiga qaramay, adabiyotga bo'ronday kirib kelib, uncha - muncha she'riy uslub va ijodni to's - to's qilib yuborgan shoir Usmon Nosirning ijodi va ayanchli qismati haqida bilib olamiz. 1912-yilga Namangan viloyatida tug'ilgan Usmon Nosir juda erta ota mehridan bebahra qoladi. Uning onasi Xolambibi zamona zayli bilan Qo'qonga turmushga chiqishga majbur bo'ladi. U haqiqiy ota mehrini Nosir xoji xonadonidan topadi. Bir kun bolakay ko'chada o'ynab yurganini ko'rgan amakisi Nosirxojiga uni internatga berish kerakligini, unda o'zgacha qobilyat, jo'shqin kayfiyat borligini aytadi. Shunday qilib Usmonjon qo'shni qishloqdagi internatda o'qishni boshlaydi. Hamma kitoblarda Usmon Nosir bolalar uyiga berib yuborilgan deyiladi, ammo unday bo'lmagan. U qatnaydigan maktab internatda ko'p miqdordagi yetim bolalar o'qirdi va ular yotib o'qishardi. Nosir xoji har hafta oldiga qizlarini olib Usmonni ko'rishga borardi. Bir kun undan xabar olishga borgan Nosirxoji uni sovuq va qorong'u xonada yolg'iz dars qilib o'tirganini ko'radi va bolaga rahmi kelib uyiga olib ketadi. Usmon o'qishini Qo'qonda davom ettiradi va 1930-1933 yillarda Samarqand Davlat Universitetida tahsil oladi. Ilk she'riyatga qiziqishi



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

ham aynan Samarqanddalik davrida uyg'onadi. Bo'lajak shoirning ilk she'ri "Haqiqat qalami" bo'lib, 1927-yilda "Yangi yo'l" gazetasida bosib chiqiladi. 1931-yilda fuqarolar urushi mavzuyiga bag'ishlangan "Norbo'ta" nomli dostonini yaratadi. Doston "Yangi Farg'ona" gazetasida e'lon qilinadi. Shoirning ilk she'riy to'plamlari "Quyosh bilan suhbat" va "Safarbar satrlar" 1932-yilda nashr etiladi. Shundan so'ng "Naxshon", "Nil va Rim" dostonlarini, 1934-yilda "Traktorobod", 1935-yil "Yurak" va 1936-yilda "Mehrim" nomli she'riy kitoblari nashr etiladi.

1936 yilning bahori. Usmon Toshkentdan Qo'qonga kelib Nosir otaga o'zining do'sti Nuriddin O'lmasboevga katta singlisi Ravzaxonni turmushga berish niyati borligini aytadi. Ota rozilik beradi. To'yni o'tkazib Usmon Ravzaxonni Toshkentga ko'chirib keladi. Bir oz vaqt o'tgach, Usmon Qo'qondan butun oilasini Toshkentga ko'chirib kelish niyatida yana Qo'qonga borib: «Endi hammamiz bir joyda bo'laylik», deb otasini ko'ndiradi. 1937 yilning bahorida Usmon oila a'zolarini Toshkentga, Chaqar mahallasida yashay boshlashdi. Shu kezlarda Usmon bir kuni uyga mast bo'lib qaytdi. Uni o'rtoqlari — artist Muhsin Hamidov bilan shoir Yusufjon Hamdam olib kelishgan edi. Usmon onasiga: "Bugun meni yozuvchilikdan o'chirishdi, - deb aytdi. - Nimagaligini o'zim ham bilmayman». 1937 yil 27-yanvar kuni Usmon Nosir adabiy faoliyatining 10-yillik yubileyi keng nishonlanadi. Biroq bayramdan yarim yil o'tib Yozuvchilar uyushmasida yosh shoirning "xulq-atvori" muhokama qilingan majlis bo'lib o'tadi. Yig'ilishdan ikki kun o'tib, 14-iyul kuni Yozuvchilar uyushmasidan chiqarilgan edi. Shunday qilib 24 yoshli Usmon Nosirning hibsga olinishi haqida buyruq ham allaqachon tayyorlab qo'yilgandi. Ona sho'rlik o'g'li millatchilikda ayblanib, Yozuvchilar soyuzida "ishi" muhokama bo'lganini bilmasdi. Usmonga rahbarlaridan biri: "Aybingni bo'ynimgga ol, keyin gunohing yengillashadi. Men sening tarafingni olib, oqlab chiqaman. Egilgan boshni qilich kesmaydi, axir!" deb turli gaplar bilan avraydi. Usmon Nosir unga ishondi. O'sha majlisda Usmonni rosa talaydilar.....

Shunday qilib, endi 24 bahorni qarshilagan shoirning qanotini sindiradilar. Darvoqe, majlis oxirida «ayblanuvchi»ning o'ziga, shoir Usmon Nosirga so'z beriladi. U haligi rahbar «aytganini» qilib, aybini bo'yniga oladi. Lekin qaysi aybini?! O'zi ham bilmasdi... O'sha «maslahatchi» dik etib o'rnidan turadiyu: «Ana, ko'rdingizmi, u aybini bo'yniga olyapti! Unga oramizda o'rin yo'q. Soyuzdan o'chirilsin deganlar qo'l ko'tarsin!» deydi... Bu ertakka o'xshaydi. O'shanda Usmon zog'lar orasida qolgan bulbulga o'xshardi.

Bir necha kundan so'ng Usmon Nosirning xonadoniga NKVD xodimlari kirib keldi va butun uyni tintuv qildi. Usmonga xonadan chiqishga ruxsat berilmadi. Bir



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

necha soat davom etgan tintuv tugagach, Mansurov degan NKVD xodimi Usmonni oldiga solib tashqariga chiqadi. Butun uyda dod faryod boshlanadi. Singillari Usmonning yelkasiga osilib yig'laydi. Usmon ko'cha eshik tomon yura boshlaydi. Izidan: "Usmonjon, bolam, ayang o'lsin!.." deb faryod qilayotgan onasi tomon qayrilib: "O'lsang o'laver!.." deb chiqib ketadi. Onaning faryodi bo'g'zida qoladi... Shunchalar "bemehr" o'g'lining ketidan chiqish yo chiqmasligini bilmay joyida taxta qotadi. Birov shu zum uning yuragini muzday suvga botirib olganday bo'ladi. 1936-yil iyul oyining jazirama kuni ona yuragi roppa - rosa 20yil kuydirdi. "O'lsang o'laver!.." degan so'zlar o'sha damda ona yuragiga nishtardek sanchilgan edi. Usmon bu dahshatli so'zlarni onasining qalbini asrab qolish uchun ataylab aytganini hech kim bilmasdi, albatta. Ona buni ko'p yillar o'tgandan so'ng ich - ichidan his etdi. "Usmonning izi o'chdi... U bilan birga oila hayotidan shodligu baxtiyorlik, tinchlik ketdi. Faqatgina bir narsa qoldi — o'zaro ahillik, o'zaro totuvlik.

Oila nihoyatda og'ir ahvolda yashay boshladi. Nosir otaga «xalq dushmani»ning otasi bo'lgani uchun hech qaerda ish yo'q, qizlari Rohatxon, Inobatxonlarga hatto maktablarning eshiklari berk, Ravzaxon yana ota-onasi xonadoniga qaytgan. Uning turmush o'rtog'i Nuriddin O'lmasboev Akmal Ikromovning safdoshi sifatida qamalgan. Nosir otaga: «Usmon sizga o'gay o'g'il, undan ariza orqali voz keching. Siz inqilob uchun ko'p xizmat qilgan odamsiz. Hukumat sizni qo'llab-quvvatlaydi, ish beradi», deb maslahat beruvchilar ko'p bo'ldi. Lekin Nosir ota o'g'lining nomini sotmadi, uning begunohligiga umrining oxirigacha ishondi. Shunday qilib bu oila bisotidagi bor narsalarini sotib bo'lsa ham qamoqxonaga har hafta qatnab turdi. Oradan uch - to'rt oycha o'tib Usmon Nosir qamoqxonadan xat yozadi: "Men bu yerda uzoq turmaydiganga o'xshayman. Ibrohim Nazir va Madamin Davronlarda palto bilan etik bor shuni olib kelib bersanglar" degan ma'noda. Xolambibi qizini dugonasi bilan Ibrohim Nazirning uyiga jo'natadi. Qizlar eshikni taqillatganda Ibrohim eshikni qiya ochib turib: "Men xalq dushmanining singlisi bilan gaplashmayman!" deb paltoni irg'itib, eshikni shoshib berkitib oladi. Keyin ma'lum bo'lishicha o'sha tunda Ibrohim Nazirni ham olib ketishadi. Yillar o'tib 1944-yilning mart oyida Farrux Ahmadiy ismli kishi Usmonning Sibirdagi yozgan xatini singlisi Rohatxonga yetkazadi. Xatda: "Singlim Rohatxon! Eshitdim, O'tkir Rashid bilan oila quribsan. Juda xursand bo'ldim. Baxtli bo'linglar. Toshkentga, Yozuvchilar soyuziga" V. I. Lenin", "Shahlo" degan poemalariimni yubordim. Nahotki, butun O'zbekistonda meni bu yerlardan olib ketadigan bironta do'st, yoru birodar topilmasa?.. Toshkentga borsam, umrim qamoqda o'tsa ham mayli edi... Soyuzga ayam iltimos bilan borsin. Mening gunohim yo'q. Jonim singlim, xatni o'qigach yoqib yubor! "deyilgan edi. Bu xatni o'qigach





# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Xolambibi deyarli har kuni Yozuvchilar soyuziga boradi. O'g'li Usmon Nosirni Toshkentga keltirilishi uchun yordam berishlarni iltimos qiladi, o'g'lining o'z qo'li bilan yozgan poemalarini ko'rmoqchi bo'ladi. Onaga o'g'lidan kelgan xatu qo'lyozmalarni ko'rsatish u yoqda tursin, "Xalq dushmanining onasi bilan gaplashiladigan gap yo'q!" deb kabinetdan chiqarib yuborishadi. Bu ishlardan ona dili vayron bo'ldi. Chunki Qo'qonda ham, Toshkentda ham Xolambibining dargohi Usmonning do'stlariga hamisha ochiq edi. Lekin yaqin do'stlarining hech biri endilikda Usmonni tanimas ahvolga kelgandi.

"1956 yil sentyabr oyining oxirlarida Masodiqova Xolambibi nomiga xat keldi.

«Grajdanka Masodiqova Xolambibiga!

Sizga shuni ma'lum qilamanki, o'g'lingiz Nosirov Usmonning ishi tekshirib chiqildi. O'g'lingiz asossiz hukm qilinganligi aniqlandi. Arizangiz hamda Nosirov Usmonning jinoyat ishi, 1956 yil 3 sentyabr kuni o'tkazilgan tekshiruv materiallari asosida avvalgi hukmni bekor qilish va o'g'lingizni batamom oqlash uchun Bosh Harbiy Prokuror nomiga (Moskva shahriga) jo'natildi."

Xolambibining ko'p yillar zardobga to'lib yotgan yuragida umid uchquni paydo bo'ldi: «U tirik!» Bu uchqunni oktyabr oyining boshida Moskvadan kelgan boshqa bir xat yana alangalatdi.

Sizga ma'lum qilamanki, arizangiz Bosh Harbiy Prokuratura tomonidan hal qilindi. O'g'lingiz Nosirov Usmonga tegishli jinoiy ish qayta ko'rib chiqish uchun Oliy Sudga jo'natildi. Natija Sud tomonidan Sizga ma'lum qilinadi.

«Demak, Usmonxon tirik. Biron ta xatda uning vafoti haqida hech qanday gap-so'z yo'q, axir! Xolambibi bu gaplarni tovush chiqarib aytishga qo'rqqar, go'yo bu so'zlar aytilsa, umidi barbod bo'lishi mumkindek, shu umid onaning hayotiga bir oz bo'lsa-da, nur olib kirgandek edi.

Biroq, 1957 yilning aprel oyida kelgan xat... uni qulatdi.

Hibsga olingunga qadar yozuvchi-shoir bo'lgan Nosirov Usmonning ayblanish to'g'risidagi jinoiy ishi SSSR Oliy Sudining Harbiy kollegiyasi tomonidan 1957 yil 21 martda qayta ko'rib chiqildi.

1938 yilning 5 oktyabrida Harbiy Kollegiya tomonidan Nosirov Usmonga tegishli ish yuzasidagi chiqarilgan hukm vujudga kelgan yangi vaziyatlarga ko'ra, bekor qilindi va jinoyat sostavi yo'qligi tufayli jinoiy ishning ko'rilishi to'xtatildi. Nosirov U. vafotidan so'ng oqlandi. «Vafotidan so'ng». Oppoq qog'ozga qora siyohda yozilgan bu sovuq so'zlar onaning qalbini bir zumda chil-chil qildirdi.

Xolambibi yotib qoldi. O'sha yili yoz oylarida bir kuni hovliga ozg'indan kelgan, novcha odam kirib keldi. Ona uni darrov tanidi: bu Usmonning do'stlaridan



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

biri Ibrohim Nazir edi. U Xolambibi bilan ancha suhbatlashdi. Mehmon ketganidan so‘ng ona o‘rtanib qoldi. «Usmon og‘ir dardga muhtalo bo‘ldi; uning sovuq urgan qo‘l-oyoqlarini kesib tashlashdi, tsinga kasalidan tishlari to‘kilib ketdi... bir burda non yeyishga zor bo‘lib, Magadanda 1952 yili vafot etdi...» deb aytdi Ibrohim Nazir.

Ona uchun umidning oxirgi uchquni ham so‘ndi. «Usmon yo‘q!» Bu xayol uni chayondek chaqardi. O‘sha suhbatlardan so‘ng rangi yanada siniqqan ona ko‘rpa-to‘shak qilib yotib qoldi. Shu bilan onaning vujudida farzandi tirikligiga bo‘lgan umid batamom so‘ndi. "1940-yilning 20-avgustida Usmon Nosir Magadandan Stalinning nomiga ariza yozishga jur‘at qilib, unda o‘z ishini “ko‘rib chiqishlarini” so‘raydi. “Xalq otasi”ga qamoqda o‘tirib ham, “she‘riy roman”, uchta sahna asari va bir qator she‘rlar yozgani haqida xabar beradi: “Men hali yoshman va g‘ayratga to‘laman! Men xalqning farovonligi uchun ijod qilishim kerak! Men aybsizman!”, deya qayd etgan shoir. Ushbu arizani Stalin ko‘rib chiqqan. O‘zbekiston hukumatiga Usmon Nosirning arizasini ko‘rib chiqishni buyuradi. 1944-yilning oxirlariga kelib, hay‘at guruhi tuzilib, unda professor Borovkov, shoir Maqsud Shayhzoda va o‘sha vaqtda “Qizil O‘zbekiston” gazetasining bosh muharriri Siddiq Rajabovlar bo‘lgan. Hay‘at Usmon Nosirni aybsiz bilib, uni oqlashadi. Afsuski, shoir bu vaqtga kelib olamdan ko‘z yumgandi. U 1944-yilning 9-mart kuni vafot etadi, 15-mart kuni Suslov qishlog‘idagi (hozirgi “Pervomayskiy”) qabristonga dafn etiladi. Usmon Nosir o‘zidan keyin kichik bo‘lsa-da, juda boy meros qoldirgan va xalqning yuragida yashashda davom etmoqda.

Kemerovsk viloyatida Usmon Nosirning xoki saqlanadi. U yerda shoirning xokini yerga ko‘mgan shaxs - Anatoliy Mitrofanovich Sirota istiqomat qiladi. Siyosiy mahkum qilinganlarning sobiq qabristoni o‘rnidagi keng dalada g‘arbga yuzlanayotgan yagona haykal qad rostlab turibdi.

2003-yil O‘zbekistonda o‘zbek shoiri Usmon Nosir tavalludining 90-yilligi keng nishonlangan."

## USMON NOSIR XOKI USTIDA

Sukut quchgan qabriston uzra

To‘kiladi barglar besado.

Ilk bor qabring ustiga bo‘zlab

Kelib, mana, turibman tanho.

Buncha pinhon tutding sirlaring,

Buncha suyding sovuq ellarni.

Uyg‘onmading, hatto she‘rlaring

Uyg‘otganda bizning dillarni.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Seni sotgan odamlar tirik,  
Hamon ular sotib yurarlar.  
Balki ular yashirin, pinhon  
Mozoringga kelib turarlar.  
Men ularni taniyman... Garchi  
Xoinlarni qilishmas oshkor.  
Chunki ular endi bizlarni  
O'ldirmoqqa, sotmoqqa darkor.

Yaqinlashib kelayotir tun,  
Yoding kabi iztirobli dam,  
Yuragimni eritmoq uchun  
Yondiraman qabring uzra sham.  
1988

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
2. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
3. Bilveren, T. (2015). BABÜRNÂMEDEKİ BAZI KELİMELEİN TARİHİ VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ . Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi , 5 (9) , 114-118 . Retrieved from <https://dergipark.org.tr/en/pub/kilissbd/issue/45249/566814>
4. Otajanova, M. (2022). ANALYSIS OF MYTHOLOGYSMS IN MODERN UZBEK PROSE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 11(5), 16-27.
5. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.
6. Sabirova Nasiba Ergashevna. (2023). THE GENESIS OF BAKHSH PERFORMANCE IN THE KHOREZM REGION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 14, 134–138. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/616>
7. Turdievna, K. Z., & Tursunaliyevna, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(5), 63-67.
8. Рuzимбаев, С. Р., & Сабирова, Н. Э. (2019). Эпические певцы-сказительницы. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 32, pp. 22-24). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
9. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI.





# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

10. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI.
11. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
12. Turapovna, I. S. (2023, April). TIL BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 238-241).
13. Turdievna, X. Z. (2021). ROLE OF ALISHER NAVOI IN THE DEVELOPMENT OF MODERN LINGUISTICS. 국제언어문학, (49), 85-106.
14. Холманова, З. Т. (2021). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).

